

## INGLIZ VA O'ZBEK RASMIY DISKURSIDA DIPLOMATIK TERMINLAR TARJIMASINING QIYOSIY TADQIQI

**Baratova Risolat Rustam qizi**

*Toshkent davlat Amaliy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti  
risolatbaratova728@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek rasmiy diplomatik diskursida qo'llaniladigan diplomatik terminlarning tarjima jarayoni qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida diplomatik hujjatlar, rasmiy bayonotlar, xalqaro shartnomalar hamda siyosiy nutqlar asosiy manba sifatida o'rganiladi.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada ekvivalentlik, variativlik, kontekstga moslik va terminologik standartlash kabi muhim masalalar yoritiladi. Shuningdek, tarjima jarayonida uchraydigan milliy-madaniy tafavutlar, pragmatik omillar va rasmiy uslub me'yorlari tahlil qilinib, diplomatik atamalarni aniq va izchil berish uchun samarali strategiyalar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** diplomatik diskurs, rasmiy uslub, diplomatik terminlar, termin tarjimasi, qiyosiy tahlil.

**Аннотация:** В данной статье проводится сравнительный анализ процесса перевода дипломатических терминов, используемых в официальном дипломатическом дискурсе английского и узбекского языков. В рамках исследования в качестве основных источников рассматриваются дипломатические документы, официальные заявления, международные договоры и политические выступления.

Особое внимание уделяется таким ключевым вопросам перевода с английского языка на узбекский, как эквивалентность, вариативность, контекстуальная адекватность и терминологическая стандартизация. Кроме того, анализируются национально-культурные различия, прагматические факторы и нормы официально-делового стиля, возникающие в процессе перевода, а также предлагаются эффективные стратегии для точной и последовательной передачи дипломатических терминов.

**Ключевые слова:** дипломатический дискурс, официальный стиль, дипломатические термины, перевод терминов, сравнительный анализ.

**Abstract:** This article presents a comparative analysis of the translation process of diplomatic terms used in official diplomatic discourse in English and Uzbek. Within the scope of the study, diplomatic documents, official statements, international treaties, and political speeches are examined as the primary sources.

The study highlights key issues in translation from English into Uzbek, including equivalence, variability, contextual adequacy, and terminological standardization. In addition, national and cultural differences, pragmatic factors, and norms of official style that arise in the translation process are analyzed, and effective strategies are proposed to ensure accurate and consistent rendering of diplomatic terminology.

**Keywords:** *diplomatic discourse, official style, diplomatic terms, term translation, comparative analysis*

## MUHOKAMA

Diskurs – bu matndan kengroq tushuncha bo'lib, nutq jarayoni va uning natijasi (matn)ning o'zaro bog'liqligini anglatadi; u faqat yozma matn emas, balki ma'lum bir sharoitda sodir bo'layotgan, mazmun-mohiyati, konteksti va maqsadini ham o'z ichiga olgan keng qamrovli kommunikativ hodisadir. Diskurs ham bir vaqtning o'zida jarayon (nutqiy muloqot) va matn (turg'un mahsulot) sifatida qaraladi, tilning barcha kognitiv-kommunikativ funksiyalarini qamrab oladi.

Asosiy jihatlari:

Jarayon va natija: Diskurs — bu “oldinga va orqaga yugurish”, “harakat”, “aylanish” kabi nutqiy aloqa jarayoni, shu bilan birga uning yakuni (matn) hamdir.

Matndan farqi: Matn vaqtga qat'iy bog'lanmagan tayyor mahsulot bo'lsa, diskurs ma'lum bir vaqt va sharoitda mavjud bo'ladigan, o'zgaruvchan hodisadir.

Keng qamrov: Matn qismidan tortib to butun nutqgacha bo'lgan hodisalarni ifodalash uchun ishlatiladi, ya'ni matn, kontekst, ma'lumot beruvchi va tinglovchi, shuningdek, ularning o'zaro munosabatini qamrab oladi.

Etimologiyasi: Lotincha "discursus" — "mulohaza yuritish", "suhbat" yoki franso'zcha "Discours" — "nutq" so'zlaridan olingan.

Misol: Gazetadagi maqola — matn. Shu maqolaning o'qilishi, tushunilishi, muhokama qilinishi, undan olinadigan ma'lumot va ta'sir — diskurs.

Diplomatik yozishma - turli rasmiy xat-xabarlar va diplomatik tusdagi hujjatlar majmuyi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni yuritish vositasi, davlat tashqi siyosiy va diplomatik faoliyatining asosiy shakllaridan biri. Davlatlar o'rtasida yozishma tarzidagi muomala davlat, hukumat boshlig'i, tashqi ishlar idorasi, turli davlat va jamoat tashkilotlari hamda muassasalari yoki ularning boshliklari, diplomatik vakillar va ayrim diplomatlar nomidan yo'lga qo'yib turiladi.

Maktublar, telegrammalar, xatlar, nota orqali yozishmalar, shuningdek, deklaratsiya, bayonot, chaqiriq, axborot agentlarining xabarlarini Diplomatik yozishmalar turlari hisoblanadi. Diplomatik yozishmalarda xalqaro hayot va tashqi siyosat, davlatlararo ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama munosabat masalalari yoritiladi. Mazkur hujjatlarni tayyorlash davlat va unga tegishli muassasalar diplomatik faoliyatining muhim sohasi sanaladi. Diplomatik yozishmalarni diplomatik kuryerlar ko'rsatilgan manzilga yetkazib beradi.

Rasmiy uslub - davlat idoralari, muassasalar va shaxslar o'rtasidagi rasmiy hujjatlar (qonun, farmon, ariza, tilxat, shartnoma, dalolatnoma, hisobot va h.k.) yozishda qo'llaniladigan aniq, qisqa, bir qolipdagi, qat'iy formulali, maxsus atamalarga boy, ko'pincha yozma shakldagi uslub bo'lib, unda so'zlar o'z ma'nosida ishlatiladi va aniq qoidalar qo'llaniladi. Rasmiy uslubning xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi

Maqsadi: Rasmiy munosabatlar, ish yuritish, huquqiy va ijtimoiy jarayonlarni rasmiylashtirish.

Asosiy Belgilari:

Aniq va qisqa bo'lishi: Tushunarsizlikka o'rin qoldirmaslik. Bir xil, qolipdagi jumlar: "Qaror qilindi", "Ijro uchun qabul qilinsin" kabi iboralar.

Maxsus atamalar: Har bir sohaning o'ziga xos terminlari ishlatiladi. So'zlarning o'z ma'nosida qo'llanilishi: Badiiy uslubdagi metaforalar, o'xshatishlar ishlatilmaydi.

Qisqartmalar: Ko'pchilikka ma'lum bo'lgan qisqartmalar ishlatiladi (masalan, "h.k." - hammasi bo'lib).

Turlari: Qonunchilik (qonunlar), idoraviy-devonxona (arizalar, buyruqlar), diplomatik (notalar, bitimlar) kabi turlarga bo'linadi.

Asosiy shakli: Ko'pincha yozma shaklda (xat, hujjat) qo'llaniladi.

Misollar: Hujjatlar: Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, shartnoma, dalolatnoma, qonun, farmonlaridir.

So'zlar: "Tasdiqlanadi", "yuklatilsin", "inobatga olinsin", "qaror qilindi".

Diplomatiya — davlatlarning tashqi siyosat, sohasidagi vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, chet elda huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi rasmiy faoliyati. "Diplomatiya" termini yunon tilidagi „ikki bukilgan qog'oz“ so'zidan olingan. Qadimgi Yunonistonda va Qadimgi Rimda taxtakach muqova ichiga solingan xat elchilarga ular vakolatini tasdiqlovchi ishonch yorlig'i yoki hujjat sifatida taqdim etilgan. Bu termin hozirgi ma'noda G'arbiy Yevropada XVIII asr oxirida rasm bo'lgan. Diplomatiya davlat tashqi siyosatining eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi, ana shu siyosatning maqsad va vazifalari diplomatiya shakli va uslublarini belgilab beradi. Diplomatik faoliyatning asosiy shakllari: diplomatik kongresslar, konferensiyalar yoki kengashlar; nota, memorandum, bayonot va hokazo shakllardagi diplomatik yozishma; xalqaro shartnomalarni tayyorlash va imzolash; davlatning elchixonalar va missiyalar orqali amalga oshiradigan chet eldagi vakilligi; xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish; tashqi siyosiy masalalar bo'yicha hukumat nuqtai nazarini matbuotda yoritish. Diplomatik muassasalar va ularning mas'ul xodimlari diplomatik imtiyoz va immunitetlardan foydalanadi. Xalqaro huquqqa binoan, diplomatik vakillarga o'zlari ishlayotgan mamlakat ichki ishlariga aralashish man etiladi.

Diplomatiyaning shakllanishi davlatning yuzaga kelishi, uning muayyan organlari va lavozimdor shaxslari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. O'zbek davlatchiligi tarixida chet ellar bilan muntazam aloqalar yo'lga qo'yilganligi yaxshi ma'lum. Amir Temur davlati Fransiya, Angliya, Kastiliya, Konstantinopol, Genuya va Venetsiya bilan elchilar orqali aloqalarni yo'lga qo'ygan.

O'zbekiston mustaqil davlat bo'lgach, xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektiga aylandi. 120 dan ziyod davlat bilan diplomatik aloqa o'rnatdi (2002-yil yanvar). Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa obro'li xalqaro tashkilotlar va kengashlarga a'zo bo'ldi. Uning tashqi siyosati, diplomatik faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik hamda xalqaro huquqning umum e'tirof etgan boshqa qoida va

me'yorlariga asoslanadi. Teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik va o'zaro hurmat O'zbekiston diplomatiyasining asosiy tamoyillaridir.

Termin — muayyan fan, texnika, huquq, tibbiyot yoki boshqa sohalarga oid aniq va bir ma'noli tushunchani ifodalovchi maxsus leksik birlikdir. Terminlar emotsional bo'yoqsiz, qat'iy va standart bo'lishi bilan umumtil so'zlaridan farqlanadi.

Terminlarning asosiy xususiyatlari:

Bir ma'nolilik (monosemantiklik)

Aniqlik va qat'iylilik

Muayyan sohaga xoslik

Stilistik betaraflikdir.

Termin tarjimasini — bir tilga xos ilmiy yoki texnik terminlarni boshqa tilga mazmun, funktsiya va ilmiy aniqlikni saqlagan holda o'girish jarayonidir.

Termin tarjimasining asosiy usullari:

To'g'ridan-to'g'ri tarjima (kalka)

Transliteratsiya

Transkripsiya

Tavsifiy tarjima

Muqobil termin tanlash

Muammo va qiyinchiliklar:

Termin ekvivalentining yo'qligi

Milliy va madaniy farqlar

Soha standartlarining turlicha bo'lishidir.

Qiyosiy tahlil — ikki yoki undan ortiq tillardagi terminlarning semantik, strukturaviy va funktsional jihatdan taqqoslab o'rganilishidir.

Qiyosiy tahlil quyidagilarni aniqlashga xizmat qiladi:

Terminlarning o'xshash va farqli jihatlari

Ma'no mosligi darajasi

Tarjima ekvivalentlarining aniqligi

Terminologik nomutanosibliklar va Tarjima sifatini oshiradi

Ilmiy matnlarda aniqlikni ta'minlaydi

Terminologik xatolarni kamaytiradi

Yangi terminlar yaratishga asos bo'ladi.

Bugungi globallashtirish sharoitida davlatlararo munosabatlar samaradorligi ko'p jihatdan rasmiy va diplomatik muloqotning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Shu sababli turli tillardagi diplomatik diskursni qiyosiy jihatdan o'rganish lingvistik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi rasmiy diplomatik diskursning lingvistik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Rasmiy yoki diplomatik diskurs davlat hokimiyati organlari, diplomatik vakolatxonalar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llaniladigan nutq shakli bo'lib, u rasmiy hujjatlar, bayonotlar, shartnomalar, memorandumlar va nutqlarda namoyon

bo'ladi. Bunday diskursning asosiy belgilariga aniqlik, mantiyilik, neytrallik, ehtiyotkorlik va protokolga rioya qilish kiradi.

Ingliz tilidagi diplomatik diskurs leksik jihatdan yuqori darajada standartlashgan bo'lib, unda lotin va fransuz kelib chiqishli rasmiy birliklar keng qo'llaniladi. Pursuant to, hereby, whereas, in accordance with kabi birikmalar diplomatik hujjatlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu kabi birliklar matnga rasmiylik va universallik baxsh etadi. Shuningdek, ingliz diplomatik diskursida abstrakt tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ustunlik qiladi, bu esa mazmunni umumlashtirish va keskinlikni yumshatishga xizmat qiladi.

Grammatik jihatdan ingliz tilidagi diplomatik matnlarda passiv konstruksiyalar keng qo'llanadi. Passiv shakllar orqali subyekt yashiriladi yoki ikkinchi darajaga tushiriladi, bu esa diplomatik ehtiyotkorlikni ta'minlaydi. Masalan, The agreement was signed kabi jumlar mas'ul shaxsni aniq ko'rsatmasdan, hodisaning o'ziga urg'u beradi. Bundan tashqari, murakkab qo'shma gaplar va ergash gaplar diplomatik diskursning muhim belgisi hisoblanadi.

O'zbek tilidagi diplomatik diskurs esa milliy rasmiy-idoraviy uslub an'alariga asoslanadi. Leksik jihatdan mazkur, ushbu, tegishli, muvofiq ravishda kabi rasmiy birliklar faol qo'llanadi. Shuningdek, hurmat va ehtiromni ifodalovchi iboralar, masalan, chuqur minnatdorlik bildiradi, yuksak baholaydi, o'zbek diplomatik nutqida muhim o'rin egallaydi. Bu holat o'zbek tilidagi diplomatik diskursning madaniy asoslarini yaqqol namoyon etadi.

Grammatik nuqtai nazardan, o'zbek diplomatik matnlarida faol gap shakllari ko'proq uchraydi. Gap kesimining oxirida joylashishi va aniq subyektning mavjudligi pozitsiyaning ochiqroq ifodalanishiga olib keladi. Tomonlar kelishuvga erishdilar kabi jumlar mazmunning ravshanligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ko'plik shakli va jamoaviy subyektlar (tomonlar, davlatlar) diplomatik nutqning muhim unsuri hisoblanadi.

Pragmatik jihatdan ingliz va o'zbek diplomatik diskursi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ingliz tilidagi diplomatik nutq bilvosita ifodalashga moyil bo'lib, mojaroli vaziyatlarda yumshoq va ehtiyotkor iboralar qo'llanadi. O'zbek diplomatik diskursida esa rasmiylik saqlangan holda, pozitsiyani aniqroq ifodalashga intilish kuzatiladi. Bu holat har ikki til ortida turgan madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek rasmiy diplomatik diskursi umumiy maqsadga xizmat qilsa-da, ularning leksik, grammatik va pragmatik xususiyatlarida sezilarli farqlar mavjud. Ushbu farqlarni chuqur o'rganish diplomatik tarjima, xalqaro muzokaralar va rasmiy yozishmalar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi rasmiy (diplomatik) diskursning asosiy leksik, grammatik hamda pragmatik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki til diplomatik muloqotda aniqlik, rasmiylik va protokol talablariga xizmat qilsa-da, ularning ifoda usullari va nutq strategiyalarida sezilarli farqlar mavjud.

Ingliz diplomatik diskursi bilvosita ifoda, passiv konstruktsiyalar va umumlashtirilgan leksik birliklar orqali ehtiyotkorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lsa, o'zbek diplomatik diskursida faol gap shakllari, aniq subyekt va hurmat-ehtiromni ifodalovchi birliklar ustuvor hisoblanadi. Bu farqlar har ikki tilga xos madaniy va kommunikativ an'analar bilan bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, tahlil jarayonida diplomatik diskursning faqat lingvistik hodisa emas, balki madaniy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas aloqador kompleks jarayon ekanligi aniqlandi.

Shu bois ingliz va o'zbek diplomatik diskursini chuqur o'rganish tarjimashunoslik, xalqaro munosabatlar va diplomatik amaliyotda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qiyosiy diskurs tahlili ikki til o'rtasidagi kommunikativ tafovutlarni anglashga, diplomatik matnlarni adekvat tarjima qilishga hamda xalqaro muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pragmatik xatolarning oldini olishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Bhatia, V. K. (2004). Worlds of Written Discourse: A Genre-Based View. London:Continuum.[https://www.routledge.com/Worlds ofWrittenDiscourse/Bhatia/p/book/978082646978](https://www.routledge.com/Worlds-ofWrittenDiscourse/Bhatia/p/book/978082646978)

2.Fairclough, N. (1995). Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. London: Longman. <https://www.routledge.com/Critical-Discourse-Analysis/Fairclough/p/book/9780582219847>

3.Wodak, R. (2009). The Discourse of Politics in Action. London: Palgrave Macmillan. <https://link.springer.com/book/10.1057/9780230233683>

4.Hatim, B., & Mason, I. (1997). The Translator as Communicator. London: Routledge. <https://www.routledge.com/The-Translator-as-Communicator/Hatim-Mason/p/book/9780415099197>

5.Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: CUP. <https://www.cambridge.org/core/books/cambridge-encyclopedia-of-the-english-language>

6.Karimov, I. A. (2011). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat. <https://ziyouz.uz/ozbek-kitoblar/islom-karimov-asarlari/>

7.Rahmatullayev, Sh. (2006). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Universitet. <https://library.ziyouz.uz/>

8.Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. <https://lex.uz/docs/-1371456>

9.van Dijk, T. A. (2008). Discourse and Power. New York: Palgrave Macmillan.

<https://link.springer.com/book/10.1057/9780230583733>

10.G'ulomov, A., & Ne'matov, H. (2015). O'zbek tilining rasmiy uslubi. Toshkent:  
Fan.<https://elibrary.uz/>